

**„VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN , XALQ UCHUN “- MUSTAQILLIK,
YUKSALISH VA BIRLIK RAMZI.****RASULOVA FERUZA FAXRIDDINOVNA***226-maktab tarix fani o'qituvchisi*

Anotatsiya: Mazkur maqolada „Vatan uchun, millat uchun , xalq uchun“- mustaqillik, yuksalish va birlik ramzi shiori asosida mustaqillik g'oyasining tarixiy va zamonaviy mazmuni tahlil qilinadi. Shiorning ijtimoiy -siyosiy ahamiyati, milliy o'zlikni anglash , ma'naviy taraqqiyot va jamiyatda birlikni shakllantirishdagi o'rni yoritilgan. Mustaqillik yillarida erishilgan yutuqlar, 2025- yilgi islohatlar va ularning shior bilan uzviy bog'liqligi ilmiy asosda ko'rib chiqilgan. Shuningdek, shiorning yosh avlodni vatanparvarlik, fidoyilik va hamjihatlik ruhida tarbiyalashdagi dolzarbligi ham alohida ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: Mustaqillik, O'zbekiston, vatanparvarlik, milliy birlik, milliy qadriyatlar va an'analar, xalq manfaatlari, taraqqiyot, yuksalish, islohatlar.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi e'lon qilingan 1991-yil 1-sentabr sanasi xalqimiz tarixida burilish nuqtasi bo'ldi. Bu voqea nafaqat siyosiy suverenitetning qo'lga kiritilishi, balki millatimizning asrlar davomida orzu qilgan intilishlarini ro'yobga chiqqanini anglatadi. Prezident Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: “Mustaqillik-xalqimizning orzu armonlarini ro'yobga chiqarib, tariximizni tikladi, milliy o'zligimizni anglashga keng yo'l ochdi”.

2025-yida mamlakatimiz ushbu buyuk sananing 34-yilligini „Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun“ shiori ostida nishonlamoqda. Bu shior mazmunan mustaqillik davridagi siyosiy-ijtimoiy jarayonlarning mohiyatini ifoda etadi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida davlat suverenitetini mustahkamlash, siyosiy-huquqiy asoslarni yaratish eng muhim vazifa bo'ldi. 1992-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ana shu jarayonning poydevoriga



aylandi. Konstitutsiyaning 1-moddasida: “O‘zbekiston – suveren demokratik Respublika” deb belgilanishi mustaqillikning huquqiy kafolati bo‘ldi.

Tarixiy jihatdan qaraganda, davlat suverenitetini mustahkamlash jarayoni jahon xalqlarining milliy ozodlik harakatlari bilan uzviy bog‘liqdir. Mustaqillikning ilk davrlarida milliy valyuta – so‘m muomalaga kiritildi (1994-yil), davlat ramzlari tasdiqlandi, O‘zbekiston BMT (1992-yil 2-mart), YUNESCO (1993-yil 29-oktabr), YXHT (1992-yil 30-yanvar), SHANXAY (2001-yil) va boshqa xalqaro tashkilotlar a‘zosiga aylandi.

Shiorning birinchi qismi „vatan uchun“ degan ifoda tarixiy davrlar mobaynida xalqimizni birlashtirgan asosiy g‘oyadir. Ajdodlarimiz hayoti va faoliyati aynan ushbu shior mazmunining amaliy ifodasidir. Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: „Jaloliddin Manguberdi el- yurt istiqloli uchun kurashgan, shu yo‘lda aziz jonini qurbon qilgan ajdodlarimizning buyuk namayondasidir. Ona yurtga muhabbat va sadoqat, or-nomus va shon-shuhrat bobida Jaloliddin Manguberdiga teng keladigan ulug‘ shaxslar dunyoda kamdan kam uchraydi.... Chaqmoqdek qisqa umri mobaynida o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan Vatanga cheksiz muhabbat va sadoqat, yuksak harbiy salohiyatni namayon etib yashagan Jaloliddin Maanguberdi kabi buyuk ajdodlarimiz bilan har qancha faxrlansak, g‘ururlansak, arziydi. Ishonaman, oradan yillar, asrlar o‘tadi, sulton Jaloliddin hamisha yurtimizni ko‘z qorachig‘iday asrab- avaylash, unga farzandlik mehri, iymon- e‘tiqod bilan xizmat qilishning o‘chmas timsoli bo‘lib qoladi“.

Amir Temur „Temur tuzuklari“ da: „Har kimni Vatanini sevsa, elini sevsa, u yurt obod bo‘lur“ deb ta’kidlagan. Mustaqillik davrida bu tamoyil milliy xavfsizlik, yaxlitlik va suverenitetni himoya qilish orqali o‘z ifodasini topdi. Ushbu shior Jadidlar davrida „Vatan, millat va taraqqiyot uchun“ nomi ostida ma’rifatparvarlik harakatining bosh g‘yasi sifatida maydonga chiqqan. Mustaqillik yillarida esa „Vatan uchun“ ifidasi milliy g‘oya mafkuraning ajralmas bo‘lagiga aylanib, yoshlarni yurtga sodiqlikka chorlaydi. Demak, ushbu jumlar xalqimizning tarixiy tafakkurida ildiz otgan, uni turli davrlarda kuchli motivatsion omilga aylantirgan. „Vatan uchun“ degan ifoda Fidoyilik, Sadoqat, Mas’uliyat, Birlik kabi



ma'naviy qadriyatlarni o'zida mujassam etib, yosh avlod tarbiyasida milliy g'oya va ma'naviyatning tayanchi sifatida namayon bo'ladi.

UNESCO tadqiqotlariga ko'ra, milliy birlik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalangan jamiyatlar ijtimoiy barqarorlikni tezroq ta'minlaydi.

Shiorning ikkinchi qismi „millat uchun“ degan tamoyil mustaqillik yillarida xalqimizning ma'naviy uyg'onish jarayonini anglatadi. Mustaqillik sharofati bilan buyuk ajdodlarimiz -Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Beruniy, Abu Ali Ibn Sino kabi allomalar merosini chuqur o'rganish, ularning asarlarini keng targ'ib qilish imkoniyati yaratildi. Tarixchi akademik Bo'rivoy Ahmedov qayd etganidek: „Milliy qadriyatni tiklash – mustaqillikning eng buyuk yutug'idir. Zero, o'zlikni anglash millatni mustahkamlaydi. Millat uchun g'oyasi asrlar davomida turli tarixiy sharoitlarda xalqimizni birlashtirgan. Xususan Turon davri: qadimiy turkey yozma yodgorliklarda xalq, el va yurt manfaatlari yo'lida fidoyilik qadriyat sifatida targ'ib qilingan. Orxon- Enasoy bitiklarida „Elim, yurtim uchun“ mazmunidagi satrlar uchraydi ushbu jumlar jamiyatni uyg'otuvchi g'oya sifatida shakllangan.

Bugungi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida millat manfaatlarini ustuvor qo'yish eng muhim tamoyillardan biridir. Ushbu jumalarni ta'lim sohasi bilan bog'lasak- millat kelajagi uchun bilimli, ma'naviyatli, vatanparvar yoshlarni tarbiyalashda namayon bo'ladi.

„Xalq uchun“ iborasi mustaqillikning eng asosiy mazmunini ifodalaydi. Chunki davlat siyosatining bosh maqsadi- inson manfaatlarini himoya qilishdir. 34-yil davomida xalq farovonligini ta'minlash yo'lida ijtimoiy dasturlar amalga oshirildi: ta'lim tizimi isloh qilindi xususan SmartED loyihasi bo'lib uning mohiyati eng yirik tashqi investitsiyalardan biri bo'lib, 2030- yilga qadar sifatli ta'lim maqsadini amalga oshirishga qaratilgan. Shu bilan birgalikda pedagoglar malakasini mustahkamlash maqsadida sertifikatlashtirish tizimi joriy etilgani, inson kapitali va kadrlar tayyorlash tizimlarining yo'lga qo'yilishi ta'lim sohasining rivojlanayotganining bir dalilidir. Shuningdek sog'likni saqlash rivojlandi, yoshlar siyosati davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi.



Mustaqillik yillarida ma'naviy- ma'rifiy ishlar tizimi ham zamon va sharoit taqozosiga ko'ra takomillashtirildi. Mamlakatimizda ma'naviy – marifiy ishlarning samaradorligini, ularning hayotiyliги va ta'sirchanligi yanada oshirildi. Xususan, Prezidentimizning 2017-yil 28-iyuldagi qarorlari asosida Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi qayta tashkil etildi.

Ushbu shior o'tmish saboqlari, bugungi islohatlar va kelajak taraqqiyot yo'lining uyg'unlashgan holdagi ramzidir. Manbalarga murojaat qilib , tarixga nazar tashlasak :...Saltanatimning u chetidan bu chetigacha bir bolakay boshida bir lagan tilla ko'tarib o'tadigan bo'lsa, bir donasiga ham Zarar yetmaydigan tartib-intizom o'rnatdim.'' – xalq uchun qilingan amaliy tadbirlarni Temur tuzuklarida ham ko'rishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Mustaqillik biz uchun nafaqat tarixiy voqea , balki siyosiy mustaqillik , milliy uyg'onish va xalqparvarlik g'oyalarini mujassam etgan eng ulug' qadriyatlardan biridir.

Mustaqillik – kelajak avlod uchun ishonch manbai bo'lib bugungi yoshlarga yaratilayotgan sharoitlar yosh avlod uchun – g'urur, mas'uliyat va buyuk imkoniyat ramzi sifatida xizmat qilmoqda.

Bugun mustaqillik yangi bosqichda o'zining mazmun-mohiyatini kengaytirmoqda: „Yangi O'zbekiston''strategiyasi asosida siyosiy, huquqiy, iqtisodiy islohatlar amalga oshirilmoqda. Davlat boshqaruvida „Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak “ tamoyili joriy etildi. Mustaqillik bizni milliy qadriyatlarimizga qaytardi, xalqimizni erkin va mustaqil taraqqiyot yo'liga olib chiqdi. Mustaqillikning eng katta saboqlaridan biri- bu birlikda kuch, hamjihatlikda yuksalish borligidir. Demak, mustaqillikni asrab avaylash, uning mohiyatini chuqur anglab, kelajak avlod ongiga singdirish-har birimizning muqaddas burchimizdir.